

# **PEDAGOGIKA**

*ilmiy-nazariy va metodik jurnal*

**2/2016**

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA,  
PEDAGOGIK INNOVATIKA

**Abduraimov Sh.**  
Ta'lim sifatini oshirishda fanlararo amaliy integratsiyaning imkoniyatlari.....2

**Нарзуллаева М.**  
Модель процесса подготовки менеджеров к конструктивному взаимодействию в ситуации конфликта.....7

**Ходжаев В.**  
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarixiy ongning namoyon bo'lishi va diagnostikasi.....15

**Abdullayeva Sh.,  
Muxammadiyeva X.**  
Tarbiyasi og'ir ilk o'spirin yoshidagi o'quvchilarning xulqidagi nuqsonlarni tashxislash va korreksiyalash yo'llari.....22

**Исянова А.**  
Творчество и креативность в профессиональной деятельности педагогических кадров.....30

**Yunusova N., G'ulomov J.,  
Anvarova V.**  
Bolalar bosh miya yarimsharlari faoliyatining ularni gender farqlari bilan o'zaro bog'liqligini o'rganishga doir.....37

TA'LIM TIZIMI MENEJMENTI

**Мухамедова Д.**  
Социально-психологические аспекты подготовки менеджера образования к инновационной деятельности как фактор успеха.....43

MATEMATIKA VA TABIIY-ILMIY  
FANLAR TA'LIMI

**Akbarov A.**  
Yosh avlod va internet – raqamli hayot afzalliklari, kamchiliklari hamda informatsion tahdidlarga qarshi kurashish vositalari.....49

**Saparboyev J.**  
Geometriya o'qitishda o'quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish.....55

**Nasriddinov K., Dusmuratov M.,  
Qayumov O.**  
Mendeleyev davriy sistemasining tuzilishini dastlabki va kvant tushunchalarni bog'lagan holda o'qitish.....61

**Safarov A.**  
Kursantlarning fizikadan egallagan bilimlari sifatini oshirishda tuzilmaviy-mantiqiy sxemalardan foydalanish.....66

**Tursunov S.**  
Masofaviy ta'limda mobil texnologiyalarni qo'llashning ba'zi masalalari.....75

**Mamatov D.**  
Elektron axborot-ta'lim muhitida kasbiy ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish.....80

**Kadirov X., Zaripov L.**  
Elektron ta'lim trenajori kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish vositasi sifatida.....84

### ELEKTRON TA'LIM TRENAJORI KASBIY TAYYORGARLIK DARAJASINI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA

**Abstract.** In this article e-learning simulator is illuminated as a means for increase of professional training.

**Key concepts:** education, educational means, informational technologies, informational resources, informational environment, simulator, professional skills, virtual simulator.

**Rezume.** Mazkur maqolada elektron ta'lim trenajori kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish vositasi sifatida yoritilgan.

**Tayanch tushunchalar:** ta'lim, ta'limiy vositalar, axborot texnologiyalari, axborot resurslari, axborot muhitlari, trenajor, kasbiy ko'nikma, virtual trenajor.

**Резюме.** В статье электронно-образовательный тренажер освещен в как средство повышения уровня профессиональной подготовки.

**Основные понятия:** образование, образовательные средства, информационные технологии, информационные ресурсы, информационная среда, тренажер, профессиональные навыки, виртуальный тренажер.

Ta'lim oluvchilarda o'z ijodiy potensialini namoyon qilish, iste'dod va qobiliyatlarini rivojlantirish, yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash malakasini egallash borasida real imkoniyatlar mavjud. Didaktikaning kategoriya apparatida moddiy vositalar (ish qurollari) maqsad, mazmun, usul hamda o'qitishning tashkiliy shakllari bilan birgalikda mustaqillik xususiyatiga ham ega. Ijtimoiy hayotning har bir sohasida yuz berayotgan texnologiyalashtirish jarayonlari munosabati bilan ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatda o'qitish vositalarining ahamiyati ortib bormoqda.

Ta'lim vositalari orasida ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan sezgi-motor va aqliy harakat malakalarini shakllantiruvchi trenajorlar alohida ahamiyatga ega. Trenajorlardan zamonaviy kasb-hunar kollejlarda malakali kichik mutaxassislarni (transport vositalari haydovchilari, turli xil ishlab chiqarish jarayonlari operatorlari, ekskavator mashinisti, kranchilar va boshqalar) tayyorlash jarayonida keng foydalanish imkoniyati mavjud, ammo kuzatuvlar

\*Kadirov Xayot Sharipovich, Nizomiy nomidagi TDPU Kasb ta'limi fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan muovini. E-mail: [kadirov.khaet@mail.ru](mailto:kadirov.khaet@mail.ru)

\*Zaripov Lochin Rustamovich, Nizomiy nomidagi TDPU Kasb ta'limi metodikasi kafedrasida o'qituvchisi. E-mail: [zaripov.lochin@mail.ru](mailto:zaripov.lochin@mail.ru)



X. Kadirov\*



L. Zaripov\*

shuni ko'rsatmoqdaki, bu imkoniyatlardan ta'lim muassasalari, shu jumladan, oliy ta'lim muassasalari kasbiy ta'lim yo'nalishlarida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ulardan foydalanish talab darajasida emas. Ko'pgina hollarda ilmiy-pedagogik asosga ega bo'lmagan trenajorlar yaratilmoqda, ularni qo'llash esa kutilgan samara bermaydi. Demak, bu borada o'z yechimini kutayotgan bir qator muammolar mavjud.

Trenajorlarni o'quv jarayoniga tatbiq etish majmuaviy xarakterga ega bo'lib, ularni yaratish va qo'llash jarayonini chuqur tahlil qilishni, o'qitish vositasi sifatida didaktik imkoniyatlarini hamda ijobiy va salbiy jihatlarni aniqlash talab etiladi.

Trenajorlar o'qitishda texnik vositalarining maxsus guruhini tashkil etadi. Trenajor – bu o'quv-ishlab chiqarish jarayonida mehnat (ishlab chiqarish) sharoitini imitatsiya qilishga imkon beruvchi o'qitishning texnik vositasi<sup>1</sup>.

Trenajor deb, teskari aloqa asosida kasbiy malaka va ko'nikmalarni shakllantiruvchi, mehnat faoliyatining real sharoitini modellashtiruvchi qurilmaga aytiladi<sup>2</sup>.

Trenajor – bu psixologik va didaktik talablar bajarilishi bo'yicha quyidagi prinsipial va zaruriy muhim: konstruktiv, modeli qismlarga ega bo'lgan o'rgatish qurilmasi (ish o'rning aniq yoki virtual nusxasi), (jihazlar va jarayonlarning adekvat modeli).

Trenajorlar talabalarda texnologik jarayonlarni boshqarish, texnik obyektlardagi nosozliklar sababini aniqlash, murakkab harakatlarni bajarish va qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirish samaradorligini oshirishga imkon beradi. Real sharoitda o'rganilayotgan obyektlar yoki hodisa (jarayon)larni butunlay qarab chiqish mumkin bo'lmagan sharoitda trenajorlar almashtirib bo'lmaydigan vosita hisoblanadi<sup>3</sup>.

Trenajorlar murakkab vaziyatlarda motorli-reflektorli va kognitiv (bilish) tipidagi harakat ko'nikmalarini shakllantirish, jarayonlarning jihazlarda kechish mohiyatini, ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Trenajorlarni qo'llash quyidagi afzalliklarga ega:

– maxsus texnologiya bo'yicha mashg'ulotlarda nazariyani o'rganishdan amaliy harakatlarni egallashga o'tishda talabalarning yaxshi mo'ljal olishiga imkon berish hamda o'qitish jarayonini faollashtirish;

<sup>1</sup>Шарипов Ш., Исянов Р., Бабаходжаева Л. Билим олишнинг интеллектуал тизимини ишлаб чиқишда тренажерли технологияларнинг ўрни // Ўзбекистоннинг инновацион тараққиёти-ёшлар нигоҳида: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент: ЎзМУ, 2010. – Б. 8-10.

<sup>2</sup>Толипов Ҳ. Қ. Олий педагогика таълим тизимида умуммеҳнат ва касбий кўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялар: пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 314.

<sup>3</sup>Шарипов Ш., Исянов Р. Касбий кўникма ва малакаларни ривожлантиришда виртуал тренажерларнинг аҳамияти // Таълим тизимига ахборот технологияларини татбиқ этишнинг замонавий муаммолари. – Гулистон: ГулДУ, 2009. – Б. 346-348.

- talabalarga jihozlarning ishlash holatlarini tushuntirish va ishlab chiqarishga yaqinlashtirish;
- talabalarga ba'zan ishlab chiqarish sharoitida ish va ishlab chiqarish rejimini berish, takrorlash va variatsiyalash;
- ishning murakkab sharoitlarida, shu jumladan, talabalar bilan ishlashda haqiqiy jihozlar bilan tanishish imkoni bo'lmagan avariya holatlarida imitatsiya yaratish;
- talabalarda o'z-o'zini nazorat qilish usullarini rivojlantirish kabilar.

Trenajorlar texnik obyektlarni, ishlab chiqarish muhitini va mos ravishda talaba faoliyatini modellashtiruvchi vosita sifatida texnik, psixofiziologik va didaktik parametrlarning optimal birlashmasini ko'zda tutuvchi pedagogik-ergonomik bilimlar(mehnat jarayonlari va mehnat sharoiti)ga ega bo'lishi kerak. Talabalar tomonidan o'zlashtiriladigan faoliyatni real ishlab chiqarish sharoitida davom ettirish mumkin bo'lgan darajada soddalashtirish va bo'laklarga ajratish trenajorni yaratishdagi muhim omildir.

Ta'lim tizimiga elektron ta'lim trenajori, kompyuterli trenajor va virtual trenajor kabi atamalar kirib keldi. Elektron trenajor tarkibida boshqarish obyekti modeli, o'rganuvchi va o'rgatuvchining ish o'rni sifatida kompyuter dasturi ta'minoti ishtirok etadi va ularning funksiyalarini amalga oshiradi.

O'quv jarayonida, shu jumladan, oliy ta'lim muassasalari kasbiy ta'lim yo'nalishlarida kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida elektron ta'lim trenajorini qo'llash ehtiyoji quyidagicha belgilanadi:

- o'quv jarayonida foydalanishga mo'ljallangan jihozlar bahosi yuqoriligi va miqdorining yetarli emasligi;
- jihozlarni ishlatish bahosining yuqoriligi;
- tayyorgarlik uchun vaqtinchalik resurslarning chegaralanganligi;
- jihozlar va muhit parametrini o'zgartirishning murakkabligi;
- motorli-reflektorli va kognitiv tipdagi malakalarni shakllantirishning murakkabligi<sup>1</sup>.

Elektron ta'lim trenajorlaridan foydalanib hal etiladigan masalalar quyidagilar: o'rganilayotgan obyekt tuzilishi va elementlari bilan tanishtirish, alohida olingan malaka, shuningdek, uning to'la siklini bajarishning turg'un ko'nikmasini shakllantirish, texnologik sxemani o'rganish va texnologik jarayon bosqichlari haqida tasavvur hosil qilish, texnika xavfsizligi talablari bilan tanishtirish, jihozlar va ularning alohida tarmoqdagi nuqsonlarni aniqlashga o'rgatish, hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish ko'nikmasini mustahkamlash va boshqalar.

<sup>1</sup>Эргашев Д., Қодиров Х. Kasb ta'limi ўқитувчиларининг билим, кўникмаларини ривожлантиришда ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш методикаси. – Тошкент: ТДПУ, 2014. – Б. 118.